



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KOREYS VA O‘ZBEK MAQOLLARINING TEMATIK QIYOSI

Aliqulova Feruza Abror qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada koreys va o‘zbek xalq maqollarining tematik jihatdan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda ikki xalq maqollarida uchraydigan asosiy mavzular hamda ularning mazmuniy xususiyatlari o‘rganilgan. Maqollarning muqobil variantlari tahlili asosida xalqlarning milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlaridagi o‘xshash hamda farqli jihatlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari qiyosiy paremiologiya va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: maqol, paremiologiya, koreys maqollari, o‘zbek maqollari, qiyosiy tahlil, lingvomadaniyat, milliy mentalitet.

ТЕМАТИЧЕСКОЕ СОПОСТАВЛЕНИЕ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ

Аликулова Феруза Аброр кизи

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель

Аннотация

В данной статье проводится тематический сравнительный анализ корейских и узбекских народных пословиц. В исследовании рассматриваются основные темы и содержательные особенности пословиц двух народов. На основе анализа эквивалентных вариантов выявляются сходства и различия национального мировоззрения и культурных ценностей. Результаты исследования имеют значение для сравнительной паремологии и лингвокультурологии.

Ключевые слова: пословица, паремология, корейские пословицы, узбекские пословицы, сравнительный анализ, лингвокультурология, национальный менталитет.

A THEMATIC COMPARISON OF KOREAN AND UZBEK PROVERBS

Aliqulova Feruza Abror qizi

Uzbekistan State World Languages University, Lecturer

Abstract

This article presents a thematic comparative analysis of Korean and Uzbek folk proverbs. The study examines the main themes and semantic features reflected in the proverbs of both nations. Based on the analysis of equivalent proverb variants, similarities and differences in national worldview and cultural values are identified. The findings contribute to comparative paremiology and linguocultural studies.

Keywords: proverb, paremiology, Korean proverbs, Uzbek proverbs, comparative analysis, linguoculturology, national mentality.

XXI asrda turli xalqlarning tili, madaniyati va tafakkurini qiyosiy o‘rganish tilshunoslik hamda madaniyatshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy qadriyatlari uning xalq og‘zaki ijodida, xususan, maqollarida o‘z ifodasini topadi. Maqollar xalqning turmush tarzi, urf-odati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan qisqa, ammo mazmunan chuqur birliklar hisoblanadi.

Koreys va o‘zbek xalqlari geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan bo‘lsa-da, tarixiy taraqqiyot, oilaviy qadriyatlar, mehnatsevarlik, insoniy munosabatlar hamda axloqiy qarashlar nuqtai nazaridan ma‘lum o‘xshashliklarga ega. Shu bilan birga, har ikki xalqning milliy mentaliteti, tarixiy rivojlanish yo‘li va madaniy xususiyatlari maqollarda o‘ziga xos tarzda aks etgan. Shu sababli koreys va o‘zbek xalq maqollarini tematik jihatdan qiyosiy tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy va etnografik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek va koreys xalq maqollari mavzu jihatidan juda rang-barangdir. Agar barcha o‘zbek va koreys xalq maqollari keltirilgan to‘plamlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularda o‘zbek xalqi hayotining har bir jabhasida uchraydigan narsalar va turli xil hodisalarning maqollarda ifodalanishiga guvoh bo‘lamiz.

Filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005-yilda nashr qilingan to‘plamda o‘zbek xalq maqollarining 70 ga yaqin mavzudagi jamlanmasi berilgan. To‘plamda o‘zbek xalq hayotining barcha sohalarida uchraydigan maqollarni

topishimiz mumkin. Quyida “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamidagi bir xil mavzudagi maqollarning har ikkala tilda muqobil variantga ega yoki ega emasligining sabablarini xalqlarning mentalitetidan kelib chiqqan holda isbotlashga harakat qilamiz. Tahlil qilinadigan barcha o‘zbek xalq maqollarining koreyscha muqobil variantlarini “우리말 속담 4000” deb nomlangan koreys xalq maqollari to‘plamidan keltiramiz.

1-jadval

№	Mavzu	Koreyscha maqol	O‘zbekcha tarjimasi	O‘zbekcha muqobil variant
1	Vatan va vatanparvarlik	내 집 보다 좋은 곳은 없다.	O‘z uyimdan ko‘ra yaxshiroq joy yo‘q.	Bulbul chamanni sevar – odam Vatanni.
2	Jamoatchilik va xudbinlik	두 손뼉이 맞아야 소리가 난다.	Ikki qo‘l kafti bir-biriga urilsagina tovush chiqadi.	Ikki qo‘l qilgan ishni bir qo‘l qilolmas.
3	Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik	말보다는 실천을 하라.	Gapdan ko‘ra ish qil.	Gapdan ko‘ra ish qil.
4	Halollik va tekinxo‘rlik	재주는 곰이 넘고 돈은 되놈이 번다.	Ayiq umbaloq oshadi-yu, pulni egasi oladi.	Kim ishlaydi, kim tishlaydi.
5	To‘g‘rilik va egrilik	바늘 도둑이 소 도둑 된다.	Igna o‘g‘irlagan sigir ham o‘g‘irlar.	Igna o‘g‘irlagan sigir ham o‘g‘irlar.
6	Yaxshilik va yomonlik	호랑이는 죽어서 가죽을 남기고, 사람은 죽어서 이름을 남긴다.	Yo‘lbars o‘lsa, terisi qolar, odam o‘lsa – nomi.	Yaxshidan ot qoladi. // Yomondan dog‘ qolar, yaxshidan – bog‘.
7	Yaxshi so‘z va yomon so‘z	가는 말이 고와야 오는 말이 곱다.	Borayotgan so‘zlar go‘zal bo‘lsa, kelayotgan so‘zlar ham go‘zal bo‘ladi.	Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
8	Adolat, insof va insofsizlik	바람에 침을 뱉으면 제 수염만 더럽힌다.	Osmonga qarab tuflasang, o‘z soqolinggina iflos bo‘ladi.	Birovga choh qazigan unga o‘zi yiqilar.
9	Do‘stlik va dushmanlik	어려울 때 도와주는 친구가 진짜 친구지.	Qiyinchilikda yordam bergan do‘st haqiqiy do‘stdir.	Do‘st kulfatda bilinadi.
10	Tenglik va tengsizlik	고래 싸움에 새우 등 터진다.	Kitlarning urishida qisqichbaqa zarar ko‘radi.	Ikki qo‘chqor urishar, echkingin buti ayrilar.
11	Ilm, kasb-hunar va hunarsizlik	배울 수 없을 정도로 늙는 경우는 없다.	Ilm olishning erta-kechi yo‘q.	Ilm olishning erta-kechi yo‘q.
12	Mardlik va nomardlik	사자 꼬리가 되느니 개의 머리가 되라.	Sherning dumi bo‘lguncha, itning boshi bo‘l.	Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshi.
13	Tarbiya va odat	될성부른 나무는 떡잎부터 알아본다.	Gurkiraydigan daraxtni niholligidan bilsa bo‘ladi.	Bola boshidan ma‘lum.

14	Mehmon va mehmondo'stlik	꽃이 좋아야 나비가 모인다.	Gul yaxshi bo'lsa, kapalak ko'payadi.	Mehmon mezbonga aziz, mezbon – mehmonga.
15	Saxiylik va baxillik	되로 주고 말로 받는다.	Piyolada berib, kosa bilan qaytarib oladi.	Ol desang suyunar, ber desang kuyunar.
16	Go'zallik va xunuklik	옷이 날개.	Kiyimlar – qanotlar.	Daraxt – yer ziynati, kiyim – er ziynati.
17	Kamtarlik va manmanlik	깨구리 올챙이적 생각도 못 한다.	Qurbaqa balchiqda kechirgan kunlarini eslamaydi ham.	O'tgan kuningni unutma, xom chorig'ingni quritma.
18	Baxt, omad va omadsizlik	쥐구멍에도 별들 날이 있다.	Sichqon iniga ham quyosh nuri tushadigan kunlar keladi.	Qorong'u kun mangu bo'lmas.
19	Epchillik va noshudlik	해가 날 때 풀을 말려라.	Quyosh chiqib turganda o'tlarni quritib ol.	Temirni qizig'ida bos.
20	To'g'ri so'z va yolg'onchilik	정직은 최선의 방책이다.	To'g'riso'zlik eng yaxshi yo'l.	Rost gap aytgan yengilmas.
21	Sabr-qanoat va sabrsizlik	고생 끝에 낙이 온다.	Azob ortidan baxt keladi.	Azob ko'rmay, rohat yo'q.
22	Mehr-oqibat va oqibatsizlik	빛자루로는 개도 안 때린다.	Itni ham supurgi bilan urishmaydi.	Uyga kelganni it qopmas.
23	Qadr-qimmat va qadrsizlik	싼 게 비지떡이다.	Arzon narsa bijittok bo'ladi.	Arzonning sho'rvasi tatimas.
24	Muhabbat va bevafoqlik	첫사랑에 멧들었다.	Birinchi muhabbatidan yaralangan.	Yoshlikda bergan ko'ngil, ayrilmas balo bo'lur.
25	Oila va qo'shnichilik	가까운 이웃이 먼친척보다 낫다.	Yaqindagi qo'shni uzoqdagi qarindoshdan yaxshi.	Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi.
26	Qarindosh-urug'chilik va begonalik	눈에서 멀어지면 마음에서도 멀어진다.	Ko'zdan yiroq bo'lsa, ko'ngildan ham yiroq bo'ladi.	Ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq.
27	Farzand va befarzandlik	집 안에 어린 아이가 없으면, 지구에 태양이 없는 거와 같다.	Uy ichida bola yo'qligi yer sharida quyosh nuri yo'qligi bilan barobardir.	Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.
28	Tajribakorlik va kaltabinlik	경험이 최고의 스승.	Tajriba – eng yaxshi ustoz.	Bir sinalgan tajriba, yetti kitobdan afzal.
29	Ta'magirlik va ochko'zlik	남의 떡이 더 커 보인다.	Boshqaning pirogi ko'zga kattaroq ko'rinadi.	Birovning xotini ko'zga qiz ko'rinadi.
30	Umid va umidsizlik	궁하면 통한다	Izlagan yo'l topar.	Axtargan topar.
31	Ishonch va ishonchsizlik	백문이 불여	Ko'p eshitishdan bir ko'rish afzal.	Yuz bor eshitgandan bir bor ko'rgan yaxshi.

		일견이다		
32	Erk va erksizlik	빛진 죄인	Qarzdor odam aybdordek bo'ladi.	Darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin.
33	Barqarorlik va beqarorlik	장부의 한 말이 천금같이 무겁다.	Er kishining bir so'zi ming oltindek og'ir.	Tursang so'zingda, hurmat o'zingda.
34	Ahillik va noahillik	백지장도 맞들면 낫다.	Oq qog'ozni ham birgalikda ko'targan yaxshi.	Hamjihatlik – davlat, yolg'izlik – kulfat.
35	Samimiylik va nosamimiylik	겉 다르고 속 다르다.	Usti boshqa, ichi boshqa.	Yaltiroq hamma narsa oltin bo'lavermas.
36	Farosat va farosatsizlik	김치국부터 마시지 말라	Kimchi sho'rvasidan boshlab ichma.	To'ydan keyin nog'ora.
37	Sabab, bahona va natija	콩 심은 데 콩 나고 팥 심은 데 팥 난다.	No'xat eksang no'xat unadi, loviya eksang loviya unadi.	Nimani eksang, shuni o'rasan.
38	Samaradorlik va besamarlik	하늘은 스스로 돕는 자를 돕는다.	Xudo o'ziga yordam berganga yordam beradi.	Harakatda barakat.
39	Rizq-nasiba va benasiblik	산 입에 거미줄 치랴.	Tirik og'izga o'rgimchak in qurmaydi.	Rizq kamimas, banda ochidan o'lmas.
40	Tejamkorlik va isrofgarchilik	비오는 날을 위해 무엇인가를 저축하라.	Yomg'irli kun uchun nimadir saqlab qo'y.	Oq tangang ortiq bo'lsa, qora kunga saqla.
41	Ehtiyoj va zaruriyat	핑 대신 닭	Tustovuq o'rniga tovuq.	Ot bo'lmaganda eshak ham ot.
42	Reja va rejasizlik	돌다리도 두들겨 보고 건너라.	Tosh ko'prikdan ham urib ko'rib o't.	Yetti o'lchab bir kes.
43	Qudrat va ojizlik	개미 구멍으로 독도 무너진다.	Chumoli ini teshigi dambani qulatishi mumkin.	Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar.
44	Ma'suliyat va ma'suliyatsizlik	잘되면 제 탓, 못되면 남 탓.	Ishlar yaxshi ketsa, meniki, ishlar yomon ketsa, boshqalarniki.	Mendan ayb o'tmas, tilim toyib ketmas.
45	Taqdir va tadbir	이 없으면 잇몸으로 살자.	Tish bo'lmasa, milk bilan yashash kerak.	Ho'kizing bo'lmasa, o'zing chop, omoching bo'lmasa ketmon top.
46	Vaqt va fursat qadri	시간이 금이다.	Vaqt bu oltindir.	Vaqting bor – naqding bor.
47	Imkon va imkonsizlik	돈만 있으면 귀신도 부를 수 있다.	Puling bo'lsa, arvohni ham chaqirsa bo'ladi.	Pul bo'lsa, changalda sho'rva.
48	Farovonlik va yetishmovchilik	분수에 맞게 살아라.	O'zingni imkoniyatlaringga mos yasha.	Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
49	Ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik	낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가	Kunduzgi gapni qush eshitar, tungi gapni sichqon eshitar.	Devorning ham qulog'i bor.

		듣는다.		
50	Mamnunlik va afsuslanish	엎질러진 물이다.	To‘kilib bo‘lgan suv.	O‘tgan ishga o‘kinma.
51	Tozalik, sog‘lik va bemorlik	병들어야 설움을 안다	Kasal bo‘lsanggina azobini bilasan.	Och holini to‘q bilmas, kasal holini – sog‘.
52	Dehqonchilik va chorvachilik	할아버지 진지상을 속여도, 가을 받고량은 못 속인다.	Bobongni aldashing mumkin, ammo kuzgi jo‘yakni alday olmaysan.	Bahorgi harakat – kuzgi barakat.
53	Sevinch va g‘am	쥐구멍에도 별들 날 있다.	Sichqon iniga ham nur tushadigan kun bor.	Har kechening kunduzi, har kunduzning kechasi bor.
54	To‘y va motam	죽음에 들어 노소가 없다.	O‘lim yosh-u qari tanlamas.	O‘lim shoh-u gadoga barobar.
55	Yoshlik va qarilik	늙은 말이 길을 안다.	Qari ot yo‘lni biladi.	Qari bilganni pari bilmas.
56	Yo‘l va yo‘ldosh	길동무가 좋으면 먼 길도 가깝다.	Yo‘ldosh yaxshi bo‘lsa, uzoq yo‘l ham yaqin bo‘ladi.	Yo‘l uzoq bo‘lsa, yo‘ldoshingdan ko‘r.
57	Hayvonlar va qushlar	둔한 발도 열흘 가면 천리를 간다.	Sekin ot ham o‘n kunda ming kilometr masofani bosib o‘ta oladi.	Toyni toy deb xo‘rlama, erta-indin ot bo‘lar.
58	Yil fasllari va tabiat hodisalari	여름에 하루 놀면 겨울에 열흘 굶는다.	Yozda bir kun o‘ynasang, qishda o‘n kun och qolasan.	Yozda boshi pishmaganning qishda oshi pishmas.
59	Faqirlik va boylik	가난은 죄가 아니다.	Kambag‘allik ayb emas.	Kambag‘allik ayb emas.
60	Amaldorlar va avom din vakillari	선무당이 사람 잡는다.	Bilimi yo‘q shomon odam o‘ldirar.	Chala mulla – dinning sho‘ri.

“O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 70 ga yaqin mavzu bo‘yicha xalq maqollari keltirilgan bo‘lsa-da, mazkur tadqiqotda ularning barchasini alohida-alohida tahlil qilish emas, balki kundalik hayotda eng ko‘p qo‘llanadigan, mazmunan bir-biriga yaqin va xalq tafakkurida muhim o‘rin tutadigan maqollarni umumlashtirilgan mavzular doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb topildi. Chunki maqollar xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab olsa-da, ularning asosiy mazmuniy markazida inson, jamiyat, oila, mehnat, axloq, do‘stlik, bilim, tarbiya, halollik, sabr-toqat, vatanparvarlik kabi tushunchalar turadi. Shu sababli tadqiqotda o‘zbek va koreys xalq maqollarining tematik yaqinligi hamda ularning mazmuniy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan aksariyat mavzular koreys xalq maqollarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu holat maqollar insoniyat hayotiy tajribasining umumlashgan shakli ekanini ko‘rsatadi. Ya‘ni har ikki xalq turli geografik hududda, turli tarixiy-madaniy sharoitda yashagan bo‘lsa-da, ularning kundalik hayot, mehnat, oila, axloq, tarbiya va insoniy munosabatlar haqidagi qarashlarida mushtarak jihatlar mavjud. Masalan, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, ota-onaga ehtirom, do‘stlikka sadoqat, ilm olishga intilish, sabr-qanoat, halollik va kamtarlik kabi qadriyatlar har ikki xalq maqollarida ham yuksak baholanadi.

Fikrimizni asoslash maqsadida o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan asosiy mavzular bo‘yicha koreys xalq maqollarida mavjud bo‘lgan mazmunan yaqin yoki muqobil variantlarni aniqlashga harakat qilindi. Bunda maqollarning faqat so‘zma-so‘z tarjimasini emas, balki ularning ichki mazmuni, tarbiyaviy vazifasi, obrazlar tizimi va qo‘llanish holati ham hisobga olindi. Chunki turli tillardagi maqollar shaklan bir-biridan farq qilishi mumkin, biroq ular ifodalayotgan hayotiy xulosa, axloqiy saboq yoki ijtimoiy tajriba jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek maqollarida “mehnat qilgan rohat ko‘rar” mazmuni keng tarqalgan bo‘lsa, koreys xalq maqollarida ham mehnat, tirishqoqlik va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi maqollar ko‘p uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, koreys va o‘zbek xalq maqollarining tematik qiyosi ikki xalqning milliy dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari, axloqiy me‘yorlari va hayotiy tajribasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot davomida har ikki xalq maqollarida mehnat, oila, do‘stlik, odob-axloq, ta‘lim, tarbiya, insoniy munosabatlar, sabr, halollik va jamiyatdagi o‘zaro hurmat kabi mavzular muhim o‘rin egallashi aniqlandi. Bu esa o‘zbek va koreys xalqlarining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va tarbiyaviy qarashlarida umumiy insoniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, maqollarning mazmuni, obrazlar tizimi va ifoda vositalarida har bir xalqning o‘ziga xos milliy mentaliteti, yashash muhiti, turmush tarzi va madaniy xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Koreys xalq maqollarida ijtimoiy tartib, jamoaviylik, intizom, mehnatdagi qat‘iyat va jamiyat oldidagi mas‘uliyatga alohida urg‘u beriladi. Bu koreys xalqining tarixiy taraqqiyoti, konfutsiylik an‘analari, jamoaviy hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liqdir. O‘zbek xalq maqollarida esa oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik rishtalari, mehmondo‘stlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahalla va jamoa bilan bog‘liq axloqiy qarashlar kengroq aks etadi. Bu esa o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida oila, mahalla va insoniy munosabatlarning alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Maqollarni tematik jihatdan qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular faqat badiiy ifoda vositasi yoki xalq og‘zaki ijodi namunasi emas, balki xalqning tafakkur tarzi, dunyoni anglash usuli, axloqiy-me‘yoriy qarashlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Maqollar orqali xalq o‘zining asrlar davomida shakllangan tajribasini, ijtimoiy munosabatlarga oid qarashlarini, tarbiya mezonlarini va hayotiy falsafasini avlodlardan avlodga yetkazadi. Shu bois o‘zbek va koreys maqollarini qiyosiy tahlil qilish orqali nafaqat ikki tilning paremiologik boyligi, balki ikki xalqning ma‘naviy olami, qadriyatlar tizimi va madaniy yaqinliklari ham aniqlanadi.

Demak, koreys va o‘zbek xalq maqollarini tematik jihatdan qiyosiy o‘rganish nafaqat til birliklarini tahlil qilish, balki xalqning milliy tafakkuri, madaniy qiyofasi va ijtimoiy hayotga munosabatini anglashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar qiyosiy paremiologiya, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari koreys va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, ikki xalq og‘zaki ijodi namunalarini chuqurroq o‘rganish hamda ta‘lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoritishda samarali qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. — T.: Sharq, 2005. — 512 b.
2. 우리말 속담 4000. — 서울: 대한출판문화, 2010. — 478쪽.
3. 국어사전 / 이희승. — 서울: 민중서림, 1982. — 2028쪽.
4. 우리말 큰 사전 / 한글학회. — 서울: 어문각, 1995. — 2394쪽.